


“O’zbekiston xitinshunoslari jamiyati” tuzildi

O’zR FA Polimerlar kamyosi va fizikasi instituti olimlari tashabbusi bilan “O’zbekiston xitinshunoslari jamiyati” tuzildi va davlat ro’yxatiga olindi.



Mazkur jamiyatning asosiy maqsadi tadqiqotlar ilmiy-texnikaviy darajasini, samaradorligini oshirish hamda xitin, xitozan va ularning hosilalari sohasidagi ishlanmalarni mamlakat iqtisodiyotining turdosh tarmoqlarida amaliy joriy etish maqsadida, ilmiy, davlat va tijorat tashkilotlarining mazkur tadqiqotlar rivojlanishi borasidagi qiziqishlarini rag’batlantirish orqali mamlakatimiz olimlari va mutaxassislarining kuchlarini birlashtirilishi, fundamental va amaliy ishlanmalarning muvofiqlashtirilishi, O’zbekiston Respublikasi uchun ustuvor tadqiqot yo’nalishlarini belgilash, xitin, xitozan va ularning hosilalarini tadqiq etish borasidagi muammolar bo’yicha ma’lumot to’plash, umumlashtirish va yo’naltirishdan iborat.